

FUQAROLIK TARBIYASI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HUQUQIY
ONGNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA
ОБРАЗОВАНИЕ ГРАЖДАНИН КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ
ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ
CITIZEN EDUCATION AS AN IMPORTANT FACTOR OF DEVELOPMENT OF
LEGAL AWARENESS IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Rahmanova Zarnigor To'lqin qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Fuqarolik tarbiyasi nima ekanligi va u fuqarolar uchun qanchalik kerakligi, jamiyatda fuqarolik tarbiyasining maqsadi va vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Fuqarolik tarbiyasi jamiyatda yashayotgan shaxslarning o'z huquq va burchlarini bilishi, tushunishi va amalda qo'llashi uchun juda muhimdir. Shuningdek huquqiy ta'llim jarayoni, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish masalalari to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Fuqaro, huquq va erkinliklar, fuqarolik, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik, Davlat ramzlari, huquqiy tarbiya.*

Абстрактный. В данной статье представлена информация о том, что такое гражданское образование и насколько оно необходимо гражданам, а также цели и задачи гражданского образования в обществе. Гражданское образование очень важно для того, чтобы люди, живущие в обществе, знали, понимали и реализовывали свои права и обязанности. Также освещается информация о процессе правового воспитания, формирования правового сознания и культуры в обществе.

Ключевые слова: Гражданин, права и свободы, гражданство, правовая культура, патриотизм, государственные символы, юридическое образование.

Abstract. *This article provides information on what civic education is and how much it is needed for citizens, as well as the purpose and tasks of civic education in society. Civic education is very important for people living in society to know, understand and practice their rights and duties. Information about the process of legal education, formation of legal consciousness and culture in society is also covered.*

Key words: *Citizen, rights and freedoms, citizenship, legal culture, patriotism, state symbols, legal education.*

Hozirgi rivojlanayotgan davrda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish- qonun ustuvorligini ta'minlash, adolatli va farovon jamiyat qurishning bosh mezoni hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy bilimlarni egallashi huquqiy ong va madniyatga ega bo'lishi, fuqarolik tarbiyasi, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish va shu asnoda o'zlarining huquq va burchlariga amal qilib, o'z ijtimoiy huquqiy faolligi orqali davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarida faol bo'lishlari- bu demokratik huquqiy davlat qurishning asosiy shartlaridan biri. Rivojlangan dunyo davlatlarida yosh avlodga fuqarolik tarbiya berishning dolzarblii asosida bolalarga oilada, bolalar bog'chasida oddiy kundalik ehtiyojlarga monand huquqiy tarbiyaning dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish yo'lga qo'yilgan.

Maktablarda, o'rta professional ta'lrim va oliy ta'limi muassasalarida esa aniq fan tarmog'i sifatida, shuningdek, fanlararo uzviy bog'liklik asosida fuqarolik huquqiy tarbiya berilib bormoqda. Jahon davlatlarida jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoxda. Respublikamizda fuqarolarning fuqarolik jamiyati asoslariga doir bilimlarni oshirib borish, huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish va ijtimoiy-siyosiy faol fuqarolarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish- jamiyatda barqarorlik , rivojlanish,adolat, fuqarolar huquqlarining ustunligini taminlashning asosidir.

Mamlakatimizda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariha hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish va aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi va "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" konsepsiysi ishlab chiqildi.⁴

Farmonga muvofiq jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida "shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etildi. Bunda bolalar oilada dastlabki huquqiy tushunchalarga ega bolishi oila oldidagi, Vatan oldidagi burchini his qilishi, maktablarda, oliy talim muassasalarida huquqiy bilimlarni olishi va jamiyatga yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega va faoliyatida qo'llay oladiga faol fuqarlarni yetishtirish ko'zda tutilgan.

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda. muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. Fuqarolik - insonning Vatan, xalq oldidagi huquq va vazifalari, ijtimoiy va axloq me'yorlariga bo'ysunishi, ijtimoiy faolligi hamda ma'naviy yetukligidir. Fuqarolik deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy huquqiy tomondan himoyalanishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalanishi tushuniladi. Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasming mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.⁵

Huquqiy madaniyat esa bu kishilaming huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir. Huquqiy madaniyat murakkab, serqirra hodisa bo'lib, u eng avvalo, huquqiy ongning muayyan darajasi, ya'ni huquqiy voqelikni ongli ravishda tushunib, o'zlashtirishni; munosabatni ko'rsatadi. O'z navbatida huquqiy madaniyat huquqiy faoliyat, huquqiy ijodkorlik, huquqni muhofaza etish, boshqaruv va boshqa organlar ishining samarali usullarini hamda fuqarolar va mansabdor shaxslarning

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni

⁵ B.XODJAYEV UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI «Sano-standart» nashriyoti Toshkent - 2017

qonunga itoatkorligini talab etadi. Huquqiy ongi yuqori jamiyat a'zolari jamiyat va davlat masalalariga befarq bo'lmay, jamiyatda adolat, fuqarolar huquq va erkinlikarining ustunligi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadi. Bu esa o'z navbatida inson va fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishini oldini olishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham, o'quvchilarning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari, ularga zamonaviy bilimlarni egallashi uchun pedagogik imkoniyatlarni aniqlashtirish dolzarblik kasb etadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalami hosil qilish;
- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasvvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;
- o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbazarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy ta'limgan tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha ta'limgan muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlangich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi zarur. Shuning uchun 2000-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limgan muassasalari va umumiyoq o'rta ta'limgan maktablaridan boshlab, barcha ta'limgan turlarida bosqichma- bosqich huquq saboqlari, huquqiy bilim va tarbiya berib borilishi yo'lga qo'yildi.⁶

Umumiyoq o'rta ta'limgan maktablarida o'qitiladigan o'quv fanlarining mavzularini uzviyiliqi va uzluksizligini ta'minlash, ularni bir-biriga moslashtirishni ta'minlash ta'limgan bir qator sohalari bo'yicha o'quvchilarning bilim darajalarini oshirishga samarali ta'sir o'tkazadi. Xususan, huquqshunoslik va tarbiya darslarida o'quvchi tomonidan egallanadigan bilimlari shaxs, jamiyat, davlat, fuqaro, fuqarolik jamiyat, demokratiya, davlatning tuzilishi singari asosiy tushunchalarni o'rganish orqali ularda jamiyatning a'zosi ekanligi va shaxs sifatida Davlat, jamiyat va oila oldidagi burchlarini bajarishi kerakligi va Davlat boshqaruvi va jamiyat rivojini masalalariga befarq bo'lmashligi uqtirilib boriladi. Maktab o'quvchilarga 8-sinfidan boshlab huquqshunoslik fani o'qitiladi. Lekin biz fuqorolik tarbiyani faqat bu fanga bog'lab qoyishimiz notog'ri. Fuqorolik tarbiyani oiladan berib boshlash kerak. Fuqarolik tarbiyasini kamol toptirishda yoshlari, fuqarolar o'rtasida vatanparvarlik hissini uyg'otish va ayniqsa bu ishni bolalikdan boshlab singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Huquqiy tarbiyaning yetarli

⁶ Raxmonova D ta'limgan fuqorolik va mehnat tarbiyasi Scientific Journal www.scientificprogress.uz

darajada shakllanmaganligi, bolada ma'suliyat tuyg'usining yetarlicha rivojlanmaganligida, oilaga va jamiyatga nisbatan o'z burchini bilmaslik yoki tan olmaslik kabi urinishlarida ko'rindi. E'tibor berilgan bo'lsa ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida bиринчи о'rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g'oyalar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun Yaponiyaning judaham tezlikda taraqqiy etganiga nazar tashlaydigan bo'lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o'z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho'qqidaligiga guvoh bo'lamiz.⁷

Bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning yangi shakllarini qo'llash, jumladan Davlat mulkini asrab avaylash, soliq to'lash, atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish, o'z huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydalanish kabi majburiyatlarni tushuntirish orqali oilada, mahallada fuqarolarning huquq va majburiyatlarini tushuntirib borish huquqiy tarbiyaning samarali usulidir. Shuningdek mактабгача ta'lim tashkilotlarida katta guruhlar, maktablarda boshlang'ish sinf o'quvchilari bilan madaniy tadbirlar "Konstitutsiya bayrami", "Vatan himoyachilari kuni" singari bayramlarni nishonlash orqali ularda Vatanga muhabbat, burch, sadoqat davlat ramzlariga bo'lgan hurmat tuyg'ulari singdiriladi. Davlat ramzlarini o'rganishni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, u o'quvchilarning huquqiy va axloqiy xis-tuyg'ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Davlar gerbi, bayrog'i, madhiyasining axloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilmaxil munozara va suhbatlar, shubhasiz samarali natija beradi. Bunday tadbirlar o'quvchilar o'rtasida fuqarolik sifatlarni tarkib topishiga yordam beradi. Davlat ramzlari faqat ta'sirchan tarbiyaviy vosita bo'lib qolmay, balki ta'limiy jihatdan ham muhim omillardandir.⁸

Mamlakatimizning ta'lim sohasidagi islohotlarining bosh g'oyasi har bir shaxsning o'z ijodiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilishga intilishiga e'tibor qaratilayotganligi aynan huquqiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning texnologik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Qolaversa ta'limning uzviyligini, samaradorligini ta'minlashda o'quvchilarning huquqiy savodxonligini zamonaviy bilimlar asosida oshirish muhim ahamiyatga ega. Umumta'lim mактабларida huquqiy talimning shakllanish va rivojlanishining ta'limiy va tarbiyaviy xususiyatlarini pedagogik talqin etish, shuningdek ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlash zarur. Respublikamizda olib borilayotgan jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan o'quvchilarga huquq ta'limi berishning mazmunini takomillashtirish, to'plangan bilimlardan oqilona foydalanish, davlatimiz qonunlariga muntazam rioya qilish ko'nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

⁷ Tursunqulova S.A O'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5 www.openscience.

⁸ Abdullaeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxanova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B. Umumiyyat peadagogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2021

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.-2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sod Farmoni
3. B.X.XODJAYEV UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI «Sano-standart» nashriyoti Toshkent - 2017
4. Raxmonova D Ta'limda fuqorolik va mehnat tarbiyasi Scientific Journal www.scientificprogress.uz
5. Abdullaeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxanova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B. Umumiy pedagogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2021
6. Tursunqulova S.A O'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5 www.openscience.